

BO‘LAJAK INGLIZ TILI O‘QITUVCHILARDA INGLIZ TILIDA MULOQOT MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING XORIJIY TAJRIBALARI

Buzrukova Shohida Murod qizi

Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti Ingliz tili nazariyasi
va amaliyoti kafedrası stajyor o'qituvchisi

Annotatsiya

Maqolada ingliz tili o‘qituvchilarining muloqot madaniyatini rivojlantirish yuzasidan xorijiy olimlarning fikr-mulohazalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: amaliy o‘rganish, nazariy o‘rganish, immanent, til hodisalari, ko‘rgazmalilik, leksik birlik, suggestiv metod.

Chet tillarini amaliy o‘rganish og‘zaki nutqni tushunish, o‘qish, gapirish va yozish ko‘nikma, malakalarini rivojlantirishga xizmat qilsa, nazariy o‘rganish o‘rganilayotgan tilning rivojlanish tarixi va etimologiyadan xabardor bo‘lishni taqozo etadi. Genry Sweet nazariyasi. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida faoliyat ko‘rsatgan ingliz tilshunosi G.Suit chet tillarini nafaqat amaliy, shu bilan birga nazariy maqsadda o‘rganish nazariyasining asoschisi sanaladi. G.Suit nazariyasida quyidagi g‘oyalar ustuvorlik kasb etadi: chet tilini uning fonetikasiga asoslangan holda o‘qitish; chet tillarni o‘rganishda jonli adabiy tilni asos qilib olish; til birligi sifatida so‘zni emas, gapning namoyon bo‘lishini yodda tutish; matn va gap, gap va so‘z munosabatlarining mavjud vaziyatni ifodalashi (ya‘ni, gapni matndan tashqarida, so‘zni esa gapdan ajratgan holda o‘rganmaslik zarur); bog‘langan matn asosida tilni o‘qitish va grammatik tahlil o‘tkazish; grammatik qoidalarni matnga tayangan holda tushuntirish. Shunday qilib, boshqalardan farqli ravishda G.Suit chet tillarni o‘rganishda matn mohiyatini puxta o‘zlashtirish zarurligiga e‘tiborni qaratadi.

Germaniyalik pedagog Maksimilian Berlis o‘z qarashlarida til amaliy maqsadda o‘rganilishi zarur, degan g‘oyaga tayanadi. M.D.Berlis chet tillarni puxta o‘zlashtirishga oid quyidagi tavsiyalarni ilgari suradi:

1. Til materialini immanent ya‘ni, tarjimasiz o‘zlashtirilishi kerak.
2. Til o‘rganishga doir material o‘qituvchiga taqlid qilish asosida o‘zlashtirilsa, uning puxta bo‘lishiga erishiladi.
3. Chet tilini o‘rganishda ona tili ishtirok etmasligi zarur.
4. Til hodisalari (leksik va grammatik birliklar)ning ma‘nosi ko‘rgazmalilik (tasvir, xatti-harakat, sharhlash) yordamida ochib beriladi.
5. Yangi material, avvalo, og‘zaki taqdim etilishi kerak.
6. O‘quvchilarni nutqiy faoliyatga undovchi o‘qituvchi va o‘quvchining o‘zaro suhbatiga asoslanish boshqa usullardan ko‘ra samarali usul hisoblanadi .

Fransuz metodisti F.Guen M.D.Berlisdan farqli ravishda chet tillarni xuddi ona tili kabi amaliyot asosida o‘rganish tarafdori. U ingliz tilini o‘qitish metodikasida birinchi

bo‘lib, ijtimoiy va tabiiy borliq (oiladagi hayot, maktab, jamiyat, tabiat kabilar) haqidagi mavzular bo‘yicha tasniflash g‘oyasini ilgari surgan.¹

O‘zining amaliy tajribalariga tayangan holda chet tillar o‘rgatishga oid quyidagi amaliy-metodik tavsiyalarni ilgari surgan: shaxs tilni o‘z ehtiyojidan kelib chiqqan holda o‘rgishini yodda tutish lozim; so‘z emas, balki gap xorijiy tillarni o‘rganishdagi eng muhim birlik sanaladi; og‘zaki nutq til o‘rganishda birlamchi hisoblanadi.

F.Guen tizimiga ko‘ra dars quyidagi tamoyillarga asosan tashkil etilishi lozim: o‘qituvchi topshiriqni ona tilida bayon qiladi; o‘qituvchi mavzuni chet tilida bayon qilishda uning mazmuni harakatlari yordamida ham ifodalaydi; o‘quvchilar o‘qituvchining ortidan jummalarni takrorlaydi (to‘g‘ri talaffuz qilish mashqlari); o‘qituvchi barcha jummalarni ketma- ketlikda ifodalaydi, o‘quvchilar ham uning harakatlarini birgalikda takrorlaydi; so‘ngra tilni yaxshi o‘zlashtiradigan o‘quvchi barcha harakatlarni tegishli tilda bayon qiladi, qolgan o‘quvchilar uning ko‘rsatmalarini bajaradi; shundan so‘ng barcha o‘quvchilar jummalarni takrorlaydi va unga muvofiq harakatlarni bajaradi; barcha mashg‘ulotlar dastlab og‘zaki shaklda tashkil etiladi, darsning oxirida o‘quvchilar o‘zlari o‘zlashtirgan jummalarni daftarlariga qayd etadi; grammatik materialning mohiyati mavjud vaziyat asosida ochib beriladi; chet tillarni o‘zlashtirishda nutqning asosiy qismi fe'l sanaladi, zero, uning atrofida nutqning qolgan barcha qismlari shakllanadi; leksikaga oid materiallar mavzular (oilaviy hayot, maktab, jamiyat, tabiat, salomatlik, do‘kon kabilar) bo‘yicha tasniflanadi.

Ingliz metodisti G.Palmer ingliz tilini chet til sifatida erkin o‘rganish, bunda nutqni tinglab tushunish, gapirish, o‘qish va yozuv malakalarini o‘zlashtirish samarali natijalar berishini ta’kidlaydi. G.Palmer faoliyatining asosini og‘zaki nutqni rivojlantirish g‘oyalari egallaydi. Bu borada muallif quyidagilarni tavsiya etadi: chet tilini o‘rganishdagi qiyinchiliklar (talaffuz, imloviy, etimologik, semantik, sintaktik qiyinchiliklar)ni tasniflash; og‘zaki nutqni tinglab tushunish va gapirish yo‘nalishida o‘rgatish; dastlab passiv til boyligini shakllantirish, so‘ngra uni reproduktiv nutqda faol qo‘llash; so‘zlarning ma’nosini ifodalashda ko‘rgazmalilik, tarjima, chet tilida izohlash, matn mazmuniga tayanish; nutqiy parchalarni yodlagan holda matn mohiyatini o‘zlashtirish; so‘zlarni muayyan mezonlarga ko‘ra tanlash; matnlarni mavzularga muvofiq tanlash, mini (kichik) lug‘at tuzish va o‘qish turlarini aniqlash.²

G.Palmer, shuningdek, chet tillarini o‘zlashtirishda badiiy hamda oddiy so‘zlashuv nutqidan maqsadli, o‘rinli foydalanishni tavsiya qiladi. Shuningdek, u birinchi marta so‘z, so‘zlar

¹ Yoqubov I. Amaliy ingliz tili metodikasi. Oliy o‘quv yurtlariga o‘quvchilari uchun darslik. – T.: 2004.

² Yoqubov I. Amaliy ingliz tili metodikasi. Oliy o‘quv yurtlariga o‘quvchilari uchun darslik. – T.: 2004.

guruhi, affiks va turg'un birikmani o'z ichiga oladigan "leksik birlik" (ya'ni, ergon) tushunchasini ta'riflaydi.

Georgiy Lozanov nazariyasi. Bolgariyalik psixoterapevt G.Lozanov suggestiv (ixlos qo'yish) metodining asoschisi sanaladi. Unga ko'ra, shaxs chet tilini badiiy asarlarda ifodalangan tarixiy voqealar, zamonaviy turmush turmush tarzini o'zaro uyg'unlashtirgan holda rolli o'yin vositasida o'rganadi. O'yin jarayonida sun'iy hosil qilingan til muhit shaxsni nutqiy muloqotni tashkil qilishga undaydi. Til o'rganuvchilar dastlab pedagog rahbarligi va ishtirokida, keyinchalik esa mustaqil ravishda muloqot jarayonini tashkil etishga oid mashqlarini bajaradi. G.Lozanov nazariyasida nafaqat suggestiv (ixlos qo'yish) metodi, balki dars jarayoniga ixlos bilan yondashish (e'timod) metodi ham yetakchi o'rin egallaydi.

Nemis metodisti M.Valter metodik tizimi "Tarjimasiz metod", M.D.Berlis va F.Guen qarashlariga xos g'oyalarni o'z ichiga oladi hamda ularni leksik materialni samarali o'zlashtirishni ta'minlovchi ilg'or usullar bilan boyitadi. M.Valter tomonidan e'tirof etilgan ilg'or usullarni quyidagilar tashkil etadi: predmet yoki uning tasvirini namoyish etish, xatti-harakatlarni ko'rsatish; sinonim, antonim va chet tilida ta'riflash; ob'ekt, predmet, voqea-hodisalar, shaxs faoliyatini yorituvchi notanish so'zni yakka o'zini qo'llamay, balki so'zlar turkumi yoki jumlar ko'rinishida taqdim etish. M.Valter tomonidan taqdim etilgan amaliy mashqlar chet tillarini o'zlashtiruvchi shaxsda so'zlarni guruhlashtirishga oid ko'nikma va malakalarni hosil qilishga yordam beradi. M.Valterning mashqlari berilgan matnda qo'llanilgan antonim hamda sinonimlarni topish; bir o'zakli so'zlarni tanlash; mavzuga doir so'zlar ko'rsatish kabilardan tashkil topadi.

Yuqoridagi fikr mulohazalar ingliz tilini o'rgatish bo'yicha chet el olimlarining tajribalari natijasi hisoblanadi. Bu ko'rsatmalar albatta nisbiy bo'lib, xar bir ta'lim beruvchi uchun metodologik asos hisoblanadi.

Adabiyotlar

1. Yoqubov I. Amaliy ingliz tili metodikasi. Oliy o'quv yurtlari o'quvchilari uchun darslik. – T.: 2004.
2. Azimov E.G., Shukin A.N. Slovar metodicheskix terminov (teoreticheskoye i prakticheskoye prepodavaniye yazikov). SPb.: Zlatoust, 1999. 334 s.
3. Safonova V.V. Internet-oriyentirovannaya metodika obucheniya RKI: problemi, tendensii i perspektivi razvitiya. Materiali vistupleniya XII kongressa mejdunarodnoy assotsiatsii prepodavateley russkogo yazika i literaturi «Russkiy yazik i literatura vo vremeni i prostranstve», 2011 g.